

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR

MUXLISA OLIMJONOVA UMARJON QIZI

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI MAXSUS

PEDAGOGIKA LAGOPEDIYA YO'NALISHI 1 - KURS TALABASI

Anotatsiya: Ushbu ishda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar; ularning eshitish qobiliyatining cheklanishi sababli yuzaga keladigan muammolar; shuningdek, ushbu nuqsonlarning sabablari va ta'siri tahlil qilinadi. Eshitish nuqsoni turli darajalarda bo'lishi mumkin: yengil, o'rta yoki og'ir darajada, va har bir holat bolaning rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq va til rivojlanishi, ijtimoiy muloqot, hissiy holat, hamda ta'lim jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun maxsus davolash va pedagogik yondashuvlar talab etiladi. Eshitish apparatlari, koxlear implantlar, logopedik va psixologik yordam kabi davolash usullari bolaning eshitish qobiliyatini tiklash va rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda samarali bo'lishi mumkin. Tadqiqotda eshitish nuqsonining turlari, sabablarini va unga qarshi samarali yondashuvlarni ko'rib chiqish orqali, bolalar uchun eng yaxshi yordam va qo'llab-quvvatlash usullarini taklif qilish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Surdopedagogika, talaffuz, nutq, eshitish apparatlari, koxlear implantlar, korreksiya, logoped, otolaringolog.

Annotation: This scientific work examines children with hearing impairments and the related challenges they face. Hearing impairment results in a limitation or complete loss of the ability to hear and can vary in severity: mild, moderate, or profound. Hearing impairment can negatively affect a child's speech development, language acquisition, educational success, as well as social and emotional growth. The study explores the main causes of hearing impairment, including genetic factors, infections during pregnancy, environmental influences, and illnesses. To provide effective support for children with hearing impairments,

various treatment methods are recommended, such as hearing aids, cochlear implants, speech therapy, and psychological support. The goal of this work is to emphasize the importance of early diagnosis, specialized assistance, and the implementation of support strategies for children with hearing impairments, thereby highlighting the need for their development to be adequately supported. The research focuses on the importance of modern technologies and individualized approaches to help these children.

***Аннотация:** Данная научная работа исследует детей с нарушениями слуха и связанные с этим проблемы. Нарушение слуха проявляется в ограничении или полном отсутствии слуха и может быть разных степеней: легкая, средняя или тяжелая степень. Нарушение слуха может негативно сказаться на развитии речи ребенка, овладении языком, успехах в обучении, а также на социальном и эмоциональном развитии. В исследовании рассматриваются основные причины нарушений слуха, включая генетические факторы, инфекции во время беременности, влияние окружающей среды и заболевания. Для эффективной помощи детям с нарушениями слуха рекомендуется использование различных методов лечения, таких как слуховые аппараты, кохлеарные имплантаты, логопедическая помощь и психологическая поддержка. Целью данной работы является подчеркивание важности ранней диагностики, специализированной помощи и внедрения поддерживающих стратегий для детей с нарушениями слуха, что позволяет обеспечить необходимую поддержку их развитию. Исследование фокусируется на важности применения современных технологий и индивидуализированного подхода в помощи таким детям.*

Surdopedagogika (lot. surdus kar va pedagogika) – [defektologiya](#) tarmog‘i bo‘lib, eshitmaydigan yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus o‘qitish va tarbiyalash masalalarini ishlab chiqadi. Surdopedagogikaga kar yoki zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish nazariyasi tarixi, eshitmaydigan va zaif eshituvchi bolalarning psixologik rivojlanish, o‘quv

fanlarini o‘qitish, talaffuzni o‘rgatish va „lab bilan o‘qish“, mehnatga o‘rgatish, tarbiyaviy ishlar metodikalari kiradi. Surdopedagogika kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganib, maxsus o‘quv tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o‘quv tarbiya muassasalarini tashkil etish tartibkridalarini ishlab chiqadi. Fan asoslarini o‘rganish bilan zaif eshituvchi bolalarda og‘zaki nutq shakllanib boradi. Zaif eshituvchilarga og‘zaki nutqni o‘rgatish uchun so‘zlar talaffuz qilinganda nutq organlarining harakati ko‘rsatiladi. Shu harakatlarga qarab zaif eshituvchilar tovush va so‘zlarni ajratib olishga, ya’ni „labga qarab o‘qishga“ o‘rganadi. Nutq harakatlarini takrorlashga o‘rgangan zaif eshituvchilar gapirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, karlar maxsus o‘quv alifbosi – daktilologiyasan foydalanib gapirishlari ham mumkin. Maxsus ta’lim sharoitida o‘quvchilarda ishlab chiqish faoliyatining malaka va ko‘nikmalari shakllantiriladi va normal hayotga tayyorlanadi. Surdopedagogika otolaringologiya, akustika, logopediya, umumiy pedagogika, tilshunoslik, psixologiya, fiziologiya bilan uzviy bog‘liq. Surdopedagogika bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar O‘zbekistonda Toshkent pedagogika universitetining defektologiya ftida olib boriladi.

Eshitish nuqsonining sabablari

Genetik faktorlar: Ba’zi bolalar tug‘ilgandan buyon eshitish nuqsoniga ega bo‘lishi mumkin. Bu genetik o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladi.

Homiladorlik davri: Homiladorlik vaqtida infeksiyalar yoki ba’zi dori-darmonlar bolaning eshitish qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin.

Jarohatlar yoki virusli kasalliklar: Yaxshi eshitish uchun zarur bo‘lgan tizimning ba’zi qismlaridagi jarohatlar yoki kasalliklar (masalan, o‘rta quloq infeksiyalari, meningit yoki bosh miyadagi shikastlanishlar) nuqsonga olib kelishi mumkin.

Atrof-muhit omillari: Juda baland shovqinli muhitlarda yashash ham eshitish muammolarini yuzaga keltirishi mumkin.

Ma’lumotlarga ko‘ra eshitishda nuqsoni bor, bolalarni rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola xayotining qaysi davrida paydo bo‘lganiga va og‘ir yengilligiga bog‘liq. Masalan: ikki yoshda eshitish qobiliyati yo‘qolganda ham

karlik natijasida soqovlik qo'shilib kar va soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'lishi mumkin. Inson rivojlanishida nutq muxim faoliyatdir. Nutq eshituv orgnlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib atrofdagilarga taqlid eshitish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakillanishida eshitish analizatori nutqni harakatga keltiruvchi analizator bilan mustaxkam bog'langan, holda ishlaydi eshituv analizatorining rivojlanish darajasi ko'p jixatdan tafakkurga bog'liq. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sezgisi idroki shakillanishining umumiy qonuniyatlari bilan birga spetsifik xususiyatlariga ega bo'ladi. Avvalambor bu bolalarda asosiy sezgi turlaridan biri eshituv sezgisi mavjud bo'lmaydi bizning organizimimizga doim tovush ta'surotlar ta'sir ko'rsatadi rivojlanayotgan bola asosiy bilim manbaini eshituv sezgisi idroki orqali qabul qiladi u atrofdagilar bilan muloqotga kirishib radio, musiqa, eshitib, kino, teatirlarni tomosha qilib ko'p malumotlarga ega bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bunday imkoniyatlardan chegaralangan bo'ladi. Bu atrofni anglash jarayonini qiyinlashtiradi va kompensatsiyani talab etadi o'z navbatida bu ko'ruv harakat hidlash va sezgi idrok rivojlanishiga ta'sir ko'satadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituv sezgisi mavjud emas degan fikir noto'g'ridir. Yangi okustik aparatlar yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning 40 foyizida eshituv sezgisi qoldiqlari mavjudligini ko'rsatdi. Ularda ta'lim tarbiya jarayonida foydalanish mumkun, XIX asrda I.Fler so'ng N.M.Lagoviskiy va boshqalar ham karlarda eshituv mavjudligini e'tirof etadilar. N.M.Logoviskiy ta'kidlashicha bu eshituv qoldig'ini faollashtirish rivojlantirish mumkin. Gartmanning tadqiqotlariga tayanib Lagoviskiy eshituv idroki darjasiga ko'ra bir necha guruxlarni tansiflaydi. Bu guruhlardan biriga kiruvchi bolalarda eshituv idroki ma'lum darajada mavjud bo'lib u nonutqiy tovushlarni farqlash imkonini beradi. Boshqa bolalarda eshituv idrokining darajasi balandroq bo'lib u unli tovush, bog'in so'zlarni farqlash imkonini beradi. Davomiy mashg'ulotlar mashiqalar jaryonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idroki faollashtiriladi. Bunda eshituv idrokining

rivojlanishi anatomia va fiziologik mexanizimining tiklanishi evaziga emas, balki eshituv idrokini faollash yo'li bilan amalga oshadi. Kar bolalarda eshituv sezgisi va idrokining yo'qolishi sababli ko'rish sezgisi va idroki asosiy o'rin tutadi. Kar bolaning ko'ruv analizatori atrofdagi olamni anglashda asosiy ahamiyatga ega. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalardagi ko'ruv sezgi va idrok etuvchi bolalar bo'lishi I.V.Zanlov M.Solovyov K.I.Verestiskoy tadqiqotlarida dalillangan. Shu sababli eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bola ahamiyat bermaydigan tashqi olam xususiytlari nozikliklariga ahamiyat beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eshituv sezgisiga qaraganda ko'ruv sezgisining ustunligi harakat sezgisining teri taktil sezgilarning faolligi kuzatiladi. Bolalik davrida eshitishni yoqolishi esa bolaning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib bir qator ikkilamchi nuqsonlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Nuqson bolaning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Karlikning erta paydo bo'lishi esa nutqning rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin. Jumladan respublikamizda nogironlarning ijtimoiy himoyalash, o'qitish, tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajalariga ko'tarildi. O'zbekiston respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni 23 modda hamda davlatimiz tomonidan 1992-yil radifikatsiya qilingan. BMT ning bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 23-moddasida nogiron bolalarni alohida parvarish qilish, ta'limida foydalanish, munosib turmush kechirish, xuquqlariga egaligi e'tirof etilgan.

Xulosa: Eshitish nuqsonining turli darajalari va sabablari, shuningdek, ularga mos ravishda qo'llaniladigan metodlar va yondashuvlar o'quvchilarning umumiy rivojlanishini va ta'limdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Surdopedagogika sohasida ishlovchi mutaxassislar, ya'ni surdopedagoglar, bolalarning imkoniyatlarini to'liq ochishga yordam berish uchun turli metodikalar va texnikalarni qo'llashadi. Shu bilan birga, surdopedagogikaning ahamiyati nafaqat ta'lim jarayonida, balki bolalarning ijtimoiy hayotga kirib borishida ham katta ahamiyatga ega. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarga erta tashxis qo'yish va to'g'ri yordam ko'rsatish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlash uchun zarur. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar

va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning uyg'unligiga bog'liqdir. Shu sababli, surdopedagogika — bu nafaqat ta'lim, balki ijtimoiy va hissiy rivojlanishni ham qo'llab-quvvatlaydigan muhim soha bo'lib, uning yanada rivojlanishi va samaradorligi jamiyatda eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan yanada ochiq va qo'llab-quvvatlovchi munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Vovk, I. I.** (2010). *Surdopedagogika: Nazariyasi va amaliyoti*. – Tashkent: "O'qituvchi" nashriyoti. Ushbu manba surdopedagogikaning nazariy asoslari, metodikasi va amaliyotini o'z ichiga oladi. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim berishda qo'llaniladigan metodlarni o'rganishga yordam beradi.
2. **Shumakova, T. S.** (2015). *Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar va ularga yordam ko'rsatish metodlari*. – Moskva: Pedagogika. Ushbu asar eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yordam berish metodlarini tahlil qiladi, shu jumladan logopediya va koxlear implantlar kabi usullarni.
3. **Raxmonov, D. M.** (2017). *Surdopedagogikada innovatsion yondashuvlar*. – Tashkent: "Fan va texnologiya". Kitobda surdopedagogikada foydalaniladigan zamonaviy innovatsion metodlar, texnologiyalar va yondashuvlar haqida ma'lumotlar mavjud. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim jarayonlarini qanday samarali qilish haqida fikrlar berilgan.
4. **Jahongirov, A. S.** (2018). *Logopediya va surdopedagogika*. – Tashkent: "O'zbekiston" nashriyoti. Bu manba logopedik yordam va surdopedagogikani o'zaro bog'liq holda tahlil qiladi, eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashning turli usullarini taqdim etadi.
5. **Kurashov, Z. A.** (2020). *O'zbekistonda surdopedagogika tizimining rivojlanishi*. – Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi. Ushbu ilmiy ishda O'zbekistonda eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim bilan ta'minlash tizimi.